

TARBIYACHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA INNOVATSION
YONDASHUV

*FarDU dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

M.E.Xallokova

*FarDU maktabgacha ta'lim kafedrası,
maktabgacha ta'lim yo'nalishining
25.29 - guruh talabasi* **M.Abdusamatova**

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyachining zamonaviy pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvning mazmuni, mohiyati va ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim 30 tashkilotlarida innovatsion metodlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda STEAM va boshqa ilohor talim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorlik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiyalar AKT, STEAM, kompetensiya, interaktiv metodlar.

Bugungi globallashuv jarayonida maktabgacha ta'lim tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim mazmunining yangilanishi, pedagogik jarayonning modernizatsiya qilinishi tarbiyachi innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Innovatsion yondashuv - bu ta'lim jarayoniga yangi metodlar, texnologiyalar, kreativ pedagogik g'ooyalarni tatbiq etish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdir. Shuningdek, tarbiyachining jarayonini boshqaruvchi, motivator va tashkilotchi sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Innovatsion yondashuvning pedagogik mohiyati. Innovatsion yondashuv maktabgacha ta'lim tizimining sifatini oshirishga qaratilgan kompleks faoliyat bo'lib, quyidagicha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Yangilik yaratish va amaliyotga joriy etish. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, AKT vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.
2. Kreativ fikrlash. Tarbiyachining muammolarini noodatiy usullar bilan xalq qilishi, bolalarni erkin fikrlashga yo'naltirish.
3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Har bir bolaning yosh, psixologik va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni rejalashtirish.
4. Hamkorlikda o'qitish. Pedagoglar, ota-onalar, psixologlar bilan hamkorlikda samarali ta'lim muhitda yaratish.

5. Natijaviylik. Ta'lim jarayonining samaradorligini monitoring qilish va muntazam tahlil etish .

Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion metodlar. Interaktiv metodlar.

Interaktiv metodlar bolalaridan mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Ularga "Aqliy hujum" , "Klaster" , "Rol o'ynash " , "Loyiha metodi" kabi usullar kiradi. Bu metodlar o'yin va o'quv faoliyatini uyg'unlashtirgan holda ta'lim matnini boyitadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT).

AKT vositalaridan foydalanish maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Multimediali taqdimotlar, raqamli o'yinlar, elektron metodik qo'llanmalar, interaktiv ekranlardan foydalanish bolalarning vizual idrokini kuchaytiradi va o'quv jarayoniga qiziqish uyg'otadi.

STEAM yondashuvi. STEAM yondashuvi ilm- fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi asosida o'qitishni nazarda tutadi. Bu yondashuv konstruktorlar, mini - eksperimental, muammoli vazifalar orqali bolalarning mantiqiy tafakkuri va ijodkorligini rivojlantirishda muhim omildir.

Montessori metodikasi elementlari. Montessori texnologiyasi bolalarning mustaqilligini rivojlantiradi , ularni tanlov qilishga, o'z faoliyatini boshqarishga o'rgatadi. Turli sensor materiallar ta'lim jarayonini boyitadi.

O'yin texnologiyalari. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bosh faoliyat hisoblanadi. Shu sababli o'yin texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, rivojlantiruvchi, didaktik, ijodiy o'yinlar bolalarning aqlli va jismoniy rivojlanishini qo'llab - quvvatlaydi.

Zamonaviy tarbiyachi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur:

- ☐ Pedagogik innovatsiyalarni bilish va qo'llay olish;
- ☐ AKTdan samarali foydalanish;
- ☐ Psixologik-pedagogik bilimlarni muntazam yangilab borish;
- ☐ Kommunikativ madaniyatning yuqoriligi ;
- ☐ Kreativlik , tashabbuskorlik;
- ☐ Refleksiv tahlil qilish ko'nikmasi.

Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda malika oshirish kurslari, seminar-treninglar, onlayn vebinarlar va metodik qo'llanmalar muhim o'rin tutadi.

Innovatsion yondashuvning kutilayotgan natijalari. Innovatsion yondashuvni amaliyotga joriy etish quyidagi natijalarga olib keladi:

- ☐ Bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik rivojlandi;
- ☐ O'quv-tarbiya jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi;
- ☐ Ta'lim sifati oshadi;
- ☐ Tarbiyachining kasbiy mahorati rivojlanadi;
- ☐ Ota-onalar bilan hamkorlik yaxshilanadi;

□ Maktabgacha ta'lim tashkiloti raqobatbardosh muassasaga aylanadi.

Tarbiyachining pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvni qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biridir. Innovatsiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirib, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Zamonaviy tarbiyachi pedagogik jarayonining nafaqat ijrochisi, balki innovator yaratuvchi va rivojlanishi jarayonining yetakchisi bo'lishi zarur. Innovatsion metodlar va texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish maktabgacha ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" haqida farmoni .- Toshkent 2019
2. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni . Toshkent 2020
3. Maktabgacha ta'lim vazirligi. "ilk qadam" davlat dasturi. Toshkent 2018
4. To'rayev A , Pedagogik innovatsiyalar asoslari. Toshkent Fan 2019
5. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston 2020
6. Sultonova M . Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent tafakkur 2022
7. Montessori M. The Montessori Method. New York : Frederik A . Stokes 1912